

ESSE JANRI TAKOMILI O'ZBEK ADABIYOTIDA (NOSIR FOZILOV ESSELARI MISOLIDA)

Lolayeva Ozoda Turg'unjanovna

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni
o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-kurs bakalavr*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek adabiyotidagi esse janriining takomili Nosir Fozilov ijodi misolida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Esse, o'zbek adabiyoti, Nosir Fozilov, Esse janri takomili.*

Esse janri o'zbek adabiyotida qadimdan mavud. Misol tariqasida Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asarini keltirib o'tish mumkin. Muayyan shaxslar haqidagi ma'lumotlar janr nuqtayi nazaridan ilmiy, tarixiy, biografik, janr ko'rinishlarini eslatadi. Asosan Boburning "Boburnoma", Cho'lponning "Kleopatra" asarlarida ham essegga xos

Jihatlar bor. O'zbek adabiyotshunosligida esse janri yetralicha tadqiq etilmagan. Shunday bo'lsa-da olimlarimiz O. Sharafiddinov, U. Normatov, B. Qosimov, P. Qodirovning ilmiy maqolalari va monografiyalaridan ma'lumotlar olishimiz mumkin.

"XX asr dunyoning kalta qismida falsafa, tarix, adabiyotshunoslik va badiiy ijodda esselashish davri bo'ldi. Esse uchun jamiyat yoxud uning ko'p a'zolari tomonidan qabul qilingan universal qarash emas, balki muallifning individual qarashi qimmatli sanalganidek, esselashgan ijod uchun ham jamiyatda qabul etilgan yondashuvlarga muvofiqlik emas, muallifning o'z qarashi muhim hisoblanadi.¹

Bilamizki, adabiyotimizda janrlar talaygina. Roman, hikoya, qissa, ertak, masal, maqol, matal, askiya, insho, bayon, esse kabi. Bu janrlar ichida hozirda ilg'orlab ketayotganni bu esse hisoblanadi. Esse yozuvchini erkin fikrlashga, uni tafakkurini charxlashga yordam beradi. O'zbek adabiyotida esse ko'proq imrpovizatsiya asosida yuzaga keladigan janr bo'lib, adabiyot tarixi hozirgi adabiy jarayonning muommolari, yozuvchi va ijodkorlar ma'naviy dunyosi, biron bir asar yaratilish tarixi asar mavzusi yuzasidan muhokama va mushohadalar majmuyi hisoblanadi. Esse janriga batafsil to'xtalib o'tsak:

Esse __fransuz tilidan tarjimada "tajriba, andaza" ma'nolarini anglatadi. Esse – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko'pincha esse yozish mashg'ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohirida taklif etiladi. Esse yozish ko'pincha nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tarkibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llaniladi:

¹ Nosir Fozilov" esse-xotiralarida o'zbek-qozoq ijodkorlar siyosati" O'tkir Abdunazarov.2022-yil.

Esse – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning taʼkidlab oʻtadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Asoslangan esse – qoʻyilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdur. Muallif maʼlum bir nuqtayi nazarni egallaydi va uni himoya qiladi, bunda oʻzining nuqtai nazarini qoʻllab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.

Asoslangan samarali esse yozish uchun agar siz oʻz esseingizni yozish jarayonida uni fikriy jihatdan kitobxonlarga (uni oʻquvchilarga) “taqdim eta olsangiz” va ular bilan fikriy muloqot oʻrnata olsangiz, uni yozishingiz engil boʻladi.

1991-yilda nashr qilingan «Adabiy turlar va janrlar» kitobida esse va badiʼa haqida yarim bet maʼlumot uchraydi: «Essening hajmi va shakllari xilma-xil. Ikki-uch satrdan iborat kichkina bir hayotiy manzarani yoki voqealar tasvirini ifodalashi, fikrning yoki kechinmaning aforistik talqinidan to epik janrga xos katta hajmli asar ham boʻlishi mumkin». Shuningdek, badiʼalar haqida ham qisqacha soʻz yuritilib, epik janr izlanishlaridagi xarakterli tendentsiya sifatida koʻrsatilgan.²

Ushbu janrda sermahsul ijod etayotgan yozuvchi yana bir yozuvchi Nosir Fozilov haqida bolalar yozuvchisi Poʻlat Moʻmin shunday taʼrif beradi: “Nosir Fozilov ismi jismiga mos adiblardan. Uning asarlarida soddaligi ham, fozilligi ham sezilib turadi. Til hamma uchun tushunarli va yoqimli. Inson sifatida boshqalarga gʻamxoʻr va mexribon. Tarjimalari juda tiniq, tarjimaga oʻxshamaydi. Qardosh qozoq xalqi hayoti toʻgʻrisida oʻzbek yozuvchisi yozdimikin, deb oʻylab qolasan. Sevimli adibimiz Nosir Fozilovni oʻzbek-qozoq xalqlari oʻrtasidagi buzilmas koʻprikka oʻxshatgim keladi.”³

Ijodkorimiz hayotiga toʻxtalib oʻtsak, Nosir Fozilov 1929-yil 10-iyunda Qozogʻiston Respublikasining Turkiston tumani Qoriz qishlogʻida tavallud topdi. Ijodkor umri davomida turli nashryotlar, jurnal va tahririyatlarda adabiy xodim, boʻlim mudiri, masʼul kotib vazifalarida ishlagan. Adibning birinchi toʻplami “Irmoq” 1959-yilda chop etilgan, soʻngra “Oqim” (1962), “Robinzonlar” (1964), “Qush qanoti bilan” (1965), “Qorxat” (1968), “Koʻklam qissalari” (1970), “Diydor” (1979), “Bolaligim-podshologim” (1965), “Shum bolaning nabiralari” (1995), “Toshkentning nosi” (1996), “Eslasang koʻngling yorishur” (2004), “Topdimu yoʻqotmadim” (2010), “Munavvar lahzalar” (2013), “Noshir va Nosir soʻzi” (2015), “Tushovli toy” (2016), va boshqa koʻplab asarlar muallifi.

² Oʻzbek adabiyotida esse va uning jarni. 6-bet.

³ Gʻira-shira tongdan oppoq tonggacha”. Toshkent. Gʻafur Gʻulom nashriyoti.2017. -B.26

Taniqli akademik shoirimiz G'afur G'ulom haqidagi " G'afur akani o'z og'zidan eshitgan hangomalarim" , "Vot tomosha". "Sportchi", "He, G'uddaygan" , "Sahroyi", "She'riy maktub" hangoma esselarida G'afur G'ulomning betakror sho'xliklari, chapaniligi, topqirligi, bosqalarga o'xshamagan noma'lum jihatlari haqida so'z ketishi bilan ahamiyatlidir. ⁴ Nosir Fozilov tarjimon sifatida, ayniqsa, samarali ijod qildi. U Abay, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, G'abit Musrepov, G'abiden Mustafin, Abdulla Tojiboyev, Abdijalil Nurpeisov kabi ko'plab qozoq adiblari asarlarini o'zbekchaga ag'darib, nashr ettirdi. Shuningdek, qirg'iz, qoraqalpoq va o'zga tillardan ham ko'plab sara asarlarni o'zbekchalashtirdi. Uning ana shu ijod sohasidagi samarali mehnati zoye ketmadi. 1985-yilda unga «Shum bolaning nabiralari» kitobi uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G'.G'ulom nomidagi, 1986-yilda esa qozoq adabiyotidan qilgan tarjimalari uchun Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Bayimbet Maylin nomidagi, «Ustozlar davrasida» asari uchun esa Hamza nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1990-yilda u O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoniga sazovor bo'ldi.

Yozuvchi Nosir Fozilov adabiyotimizning qutlug' dargohiga 50-yillarning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo'lib, hozirgacha jami yetmishdan ortiq kitob chop ettirdi. Bular orasida o'ttizga yaqini original asarlar, qolganlari tarjimalardir. Yozuvchi 2018 yil 13 yanvarda vafot etgan. Mahoratli yozuvchi, iste'dodli tarjimon Nosir Fozilov ijodi davomida yozgan asarlari, yodnoma, qissa, esselarida yuksak mahoratni ko'rishimiz mumkin. Asarlarida yumoristik ruh, ulkan salohiyat va serqirra tafakkur mahsulini yaqqolnamoyon bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nosir Fozilov" esse-xotiralarida o'zbek-qozoq ijodkorlar siymosi" O'tkir Abdunazarov.2022-yil.
2. O'zbek adabiyotida esse va uning jarni. 6-bet.
3. G'ira-shira tongdan oppoq tonggacha". Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti.2017.-B.26
4. "Haq so'zlar jamlanmasi" O'tkir Abdunazarov

⁴ "Haq so'zlar jamlanmasi" O'tkir Abdunazarov.